



TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIADAN FOYDALANIB DARS O'TISHNING AFZALLIGI

Avazbekova Shohsanam Nurmamat qizi

University of Business and science universiteti o'qituvchisi

Shohsanamavazbekova807@gmail.com

Tel:973734062

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lif jarayonida multimediali dan foydalanib dars o'tishning afzalliklari haqida so'z yuritilgan. Bundan tashqari multimedia vositalarini maqsad va vazifalari,xususiyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Multimedia,zamonaviy texnologiya, kompyuter vositalari, usul, uslub, ilmiy dunyoqarash.

ПРЕИМУЩЕСТВА ОБУЧЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Авазбекова – дочь Шохсанам Нурмамата.

Преподаватель кафедры методики преподавания социальных и гуманитарных наук начального образования НАМДУ

Аннотация: В данной статье говорится о преимуществах обучения с использованием мультимедиа в образовательном процессе. Кроме того, анализируются цели и функции мультимедийных средств.

Ключевые слова: Мультимедиа, современные технологии, компьютерные средства, метод, стиль, научное мировоззрение.

THE ADVANTAGE OF LEARNING USING MULTIMEDIA IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Avazbekova is the daughter of Shohsanam Nurmamat

Teacher of the Department of Teaching Methodology of Social and Humanities of Primary Education of NAMDU

Annotation: This article talks about the advantages of teaching using multimedia in the educational process. In addition, the purposes and functions of multimedia tools are analyzed.

Key words: Multimedia, modern technology, computer tools, method, style, scientific outlook.



KIRISH

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonaviy axborot texnologiyalari jamiyatimiz rivojlanishiga eng kata ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi.Ta'lim jarayonida ham rivojlanib borayotgan multimedia texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida mavjud bo'lib,yetakchi o'rinnarni egallamoqda. "Davlatimiz rahbari avvalo maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini" ta'kidladi.[1] Shu boisdan multimedia texnologiyalarini dars jarayonlarida qo'llash orqali darsni mazmunli tashkil etilmoqda.Hozirgi kunda ilg'or pedagogik texnologiyalar,axborot-kommunikatsiyasidan foydalanish,keng ko'lamda joriy etish bo'yicha chora tadbirlarni ishlab chiqish taqazo etilmoqda.Bundan tashqari ko'plab kompaniya va firmalarda seminarlar,uchrashuvlar,treninglar va boshqa tadbirlarni o'tkazishda kompyuter texnologiyalardan foydalanilmoqda.Bunda ma'lumotlar mazmunga bor,sifatli,esda qoladigan va ko'rgazmali bo'lishi uchun ko'proq multimedia texnologiyalari ishlatiladi.Bunday texnologiyalar yaxshi natijalar ko'rsatadi.

MAVZUGA OÍD ADABÝYOTLARNÝG TAHLÝLÝ

Hozirgi bosqich maktabning eng muhim vazifasi-o'quv jarayonini yaxshilash,o'quvchilarning rivojlanishiga zamin bo'la oladigan sifatli ta'limni yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda.Bu borada butun dunyo olimlari o'z qarashlariga ega.Multimedia darslarida foydalanish ayniqsa boshlang'ich sinflarda dolzarbdir.K.D.Ushinskiy ta'kidlaganidek:"Bolalarning tabiatani aniqlik talab qiladi"[20].P.I.Patkasisti va M.L.Portnov (2008)"Ta'lim san'ati"kitobida faydalanishda shunday deydi "Vizual vositalar yordamida siz mutanosiblikni his qilishingiz va ular bilan darsni ortiqcha yuklamasligingiz kerak,chunkibu Bolani o'quv jarayonida chalg'itadi va kerakli effektni bermaydi"[13].V.P.Goroshchenko va P.L.Stepanov (2004),o'qituvchi o'qitishning barcha turlari,usullari va shakllarini o'zlashtirishi,ularni qo'llay olishni zarurligini ta'kidlaydi.[5]. Multimedia texnologiyasidan va uning asosiy vositasi bo'lgan kompyuterlardan MTTlarning ta'lim-tarbiya jarayoniga foydalanish bo'yicha xorijiy mamlakatlar (masalan, Rossiya)ning olimlaridan S.V.Gurev, N.Z.Frolova, N.I.Klifsova, V.P.Kustova,



L.A.Savina, N.M.Klimeshova, M.V.Osmakovalar, AQShda multimedia texnologiyasidan ta'lif jarayonida foydalanish bo'yicha D.Jonassen, R.Grabindger, S.Carver, R.Lehrer, D.Davidson, A.Mullon va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarni amalga oshirganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga har bir dars jarayonida vizual vositalardan foydalanib darsni qiziqarli va noananaviy tarzda tashkil qilishga va o'quvchilarni kreativ fikrlashga, dunyoqarashini kengaytirishga, dars samaradorligini yaxshilashga imkon beruvchi yo'llarni olib berish borasida amaliy va nazariy ma'lumotlar berilgan.

TAHLİL VA NATİJALAR:

Boshlang'ich sinf darsliklarida berilayotgan mavzular rasmi, rangli, o'quvchilarga qiziqarli tarzda ishlab chiqilayapti. Lekin matn asosida berilayotgan nazariy ma'lumotlarning kamligi, o'qituvchi savoli va o'quvchi javobi yetarli darajada yoritib berilmayotganligini bartaraf etish uchun qo'shimcha tarzda multimedia vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun darslik va mavzular yuzasidan qo'shimcha multimedialarni yaratishi va elektron darsliklardan foydalanib darsni qiziqarli tashkil qilish, dars samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi (multimedia) — kompyuterning matn, grafik, tovushli va videoma'lumotlar bilan ishlashga imkon beruvchi qurilmasi. Odatda multimedia deganda matn, ovoz, grafika, videotasvir va fazoviy modellashtirish kabi ma'lumotlar taqdim etish jarayonini kompyuter tizimidagi birlashishi tushuniladi.

Hozirda deyarli barcha kompyuterlar multimedia qurilmalar bilan ta'minlangan. Multimedia qurilmalar standartiga grafik tezlatgichlar va katta hajmli universal kompakt disklar ham qo'shildi.

Mediata'lism- pedagogikada yangi yo'nalish bo'lib, kommunikatsiya (aloqa) ko'pchilik aloqa kommunikatsiyalarini o'quvchilar tomonidano'rganishni e'tiborga oladi. Ya'ni: matbuot, televidenie, radio va boshqalar. Ta'limga mediata'lism vositalari sifatida axborot muhiti elementlari: darslik, ko'pchilik axborot vositalari



(nashriyotlar, radio, televideniya), video, kompyuter o'qitish dasturlari va o'yinlar, multimedia, Internet axborot setlari (turkumlari) foydalaniladi.

Nega fan ta'limalda multimediadadan foydalanish kerak?

"Ommaviy axborot vositalari va texnologiyalarning global madaniyatga yaqinlashishi bizning dunyo haqidagi bilimlarimizni o'zgartirmoqda ta'larning asoslarini shubha ostiga qo'yochib beradi. Endi so'zni o'qish yetarli emas; bolalar,

yoshlar va kattalar ham multimedia madaniyatining kuchli tasvirlarini tanqidiy talqin qilish qobiliyatiga muhtojdirlar bu esa bir nechta ommaviy axborot vositalarida o'zini namoyon qiladi. Media savodxonligi bu bo'yicha ta'limgan sohasini yangi zamonaviy pedagogikani yaratilishini ta'minlaydi va XXI asrda yashash, ishslash va fuqarolik uchun zarur bo'lgan yangi savodxonlik shakllanishiga turtki bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bundan tashqari, u o'zlashtirishga yo'l ochadi doimiy o'zgaruvchan va yangi innovatsiyalar bilan kuchayib borayotgan dunyodagi jamiki insoniyatni umrbod ta'limgan olish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni yaratib boradi.

Mediata'limgan mazmuni quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Axborot vositalari kanallar orqali beriladigan axborotni o'zlashtirish, qayta ishslash;

2. Kompyuterlar, modemlar, fakslar, multimedialar va boshqalarni ishlatish orqali kerakli axborotni qabul qilish, uzatish, tayyorlash va izlash bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish.

Media (lotincha, tesia) – axborot tashuvchi vositadir. Multimediali video ma'lumotlarni qabul qiladi va ular ustida ishlaydi.

Multimedia tushunchasi hayotimizga 90-yillarning boshlarida kirib keladi. Multimedia texnologiyalariga qiziqish amerikalik kompyuter mutaxassisini Bil Geytsning nomi bilan bog'liq. Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turli xil izoxlamoqdalar .Ularning fikrlarini umumlashtirib multimedialiaga shunday ta'rif berish mumkin: multimedia – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an'anaviy va original turlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga etkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir .

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumlidir va vaqtan yutish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqt ni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada o'zoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75 % ortadi.

1-jadval O'quvchilar uchun multimedia darslarining afzalligi va imkoniyatlari

Multimedia darslarining Afzalligi	Multimedia resurslari imkoniyatlari
Berilayotgan materialni chuqurroq, mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;	O'quv-uslubiy multimedia axborotlariga kirish imkonini kengaytirad
Ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyobi yanada ortadi	O'quvchilarda kommunikativ malakalarni, muomala madaniyatini, multimedia axborotlarini izlash o'quvini shakllantiradi
Ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqt ni tejash imkoniyatiga erishish;	Tezkor maslahat yordamini tashkil etadi
Olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanadi	Mustaqil ta'lim olish uchun individual ta'lim bazasini rivojlantiradi;
Amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.	Masofaviy ta'limni tashkillashtiradi

1-jadval

Asosiy fan o'quv dasturining bir qismi sifatida multimedia resurslaridan foydalanish:

- Ilmiy g'oyalari va tushunchalarni ko'rgazmali ko'rsatish

- O'quvchilarda atrofdagi dunyoga nisbatan hayrat va hayajon tuyg'ularini singdirish
 - Mahalliy aholi yashaydigan hududlarni misollar orqali taqdim etin
 - Ilm-fan bilan shug'ullanadigan haqiqiy odamlarga misollar keltiring
 - O'quvchilarni fan sohasiga qiziqishini shakllantirish
 - Mavzu bo'yicha joriy tadqiqotlar, nazariyalar va istiqbollarni taklif qilish
 - O'quvchilarni uzoq yoki borish qiyin bo'lgan joylar bilan bog'lang
 - 21-asr ko'nikmalarini, jumladan, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish
- Barcha o'quvchilar tomonidan umumiy tajribani taqdim eting

Imliy hamjamiyat tomonidan qo'llaniladigan vositalarni yaxshiroq takrorlash uchun o'qitish strategiyalarimizni moslashtirganimizda, biz o'quvchilarimizning o'zlarini tasavvur qilish qobiliyatini oshirish va ular bilishi kerak bo'lgan ko'nikmalarni oshirishimiz va o'zlarining umrbod ta'lif olishlarida faol ishtiropchilar sifatida namoyon qilishimiz mumkin bo'ladi.

Ta'lilda multimedia ilovalarining maqsad va vazifalarini, multimediani o'quv jarayonida tutgan o'rni, ularning tamoyillari, modellari, ta'limiylar multimedia ilovalarining o'quv-metodik, texnik ta'minoti to'g'risida bilimlarga ega bo'lishi, multimedia haqida bilim olish, ta'limiylar multimedia ilovalari uchun o'quv-metodik materiallar tayyorlash, ta'lim tizimida multimediali yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish, multimediali ta'lim platformalari va ularda elektron resurslarni yaratish malakalariga ega bo'lishdan iborat.

Multimediali o'yinlar – shunday o'yinlarki, ularda foydalanuvchi kompyuter yordamida yaratilgan virtual vositalar yordamida dasturiy vosita bilan muloqotda bo'ladi. Virtual vosita holati foydalanuvchiga turli xil axborot uzatish usullari (ovozli, visual, taktil, ya'ni sezgi organlari orqali uzatish) bilan beriladi. Hozirgi vaqtida kompyuterlardagi deyarli barcha o'yinlar multimediali o'yinlar hisoblanadi.

Interfaollik talabaning ta'lif jarayoniga qo'shilishiga yordam beradi, bilim olish uchun motivatsiyani qo'llab-quvvatlaydi va kognitiv faollikni rag'batlantiradi. Nafaqat multimedia darslari interaktiv bo'lishi mumkin..Ammo o'qituvchi interaktiv



multimedia ob'ektlaridan foydalangan holda o'z imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishi mumkin.

Turli xil o'quv vositalaridan, jumladan, multimediyadan foydalanishda interaktivlikning uch turi mavjud: reaktiv o'zaro ta'sir, faol o'zaro ta'sir, ikki tomonlama o'zaro ta'sir.

Reaktiv o'zaro ta'sirda talabalar o'zlarining ma'lumotlarga (reaksiyaga) munosabatini ko'rsatishlari mumkin, lekin shu bilan birga dasturni boshqarish imkoniyati kam.

Faol o'zaro ta'sir - bu materialning tezligini, hajmini va uni o'rganish ketma-ketligini tanlash orqali resursni boshqarish mumkin bo'lgan variant.

Ikki tomonlama nazorat bilan dastur uni boshqaradigan talabalar ehtiyojlariga moslashadi.

Multimedia darsining afzalliklari imkoniyatlarni kengaytirish va quyidagi muammolarni hal qilishdir:

Texnik imkoniyatlar:turli ob'ektlarni, tabiiy hodisalarni, jarayonlarni tasavvur qilish mavhum tushunchalarni aniq qilish uchun jarayonlarning dinamik tasviridan foydalanish.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Xulosa o'rnila shuni ta'kidlash lozimki, Multimedia dasturlari orqali tabiiy fan darslarida o'qitish o'quv materialining mazmuniy komponentlarini keng ko'lamda tizimga keltirishga ko'maklashadi,o'quvchilar atrof-olamni rangli rangtasvirlar orqali ko'rishi,ya'ni hayolan emas balki multimedia dasturlari orqali kpo'rishi va uni tahlil qilishi ta'lim oluvchilarga ta'limning to'liq yoki qisqartirilgan variantlarini erkin tanlash va o'tish imkonini beradi. Ta'lim vositalarining yangi shakli nafaqat muloqot, axborotlarni uzatish uchun yangi imkoniyatlarning vujudga kelishiga, balki an'anaviy ta'lim va ma'lum ommaviy axborot vositalari bilan taqqoslaganda zamonaviy madaniyatda o'zgacha o'rin olgan yangi muammolarning, yechimlarning, yangi kesishish nuqtalarining vujudga kelishi uchun ham imkoniyatlar yaratadi.o'quvchilarda fanga oid kompotensiyalarni shakllantirishda kompyuterdan ko'rgazmali vosita va o'quvchilar mustaqil o'zlashtirishga mo'ljallanga didaktik o'quv materiali ,o'zinin-o'zi nazorat qilish qilish,ixtirochilik



qobilyatlarini takomillashtirishga qaratilgan ijodiy texnologik obekt sifatida foydalanishga e'tibor qaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Ta'lism-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi muhokamasi".Prezident videoselektori. 30 Oktabr 202053120
- 2.Ta'limda multimedia texnologiyalari fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tqazish bo'yicha uslubiy qo'llanma 1-qisim,—ALOQAChiI nashriyot-matbaa markazida chop etildi, Toshkent – 2015 yil.
4. Ishmuxamedov, R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar: ta'lim muassalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar / R. Ishmuxamedov, A. Abduqodirov, A.Pardaev. - T.: Iste'dod, 2008. -180 b. - (O'zR Prezidentining "Iste'dod" jamgarmasi). -b.177.-2 ekz. –
5. MOODLE tizimi va undan foydalanishni o'rGANISH bo'yicha uslubiy qo'llanma. Andijon-2015.
6. Блохина, Е. Лэпбук – наколенная книга [Текст] / Е. Блохина, Т. Лиханова, Л. Морозова, О. Харина. // Обруч. – 2015. – № 4. – С. 29-30.